BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI TA’LIM-TARBIYASIDA MAQOL JANRINING AHAMIYATI

Norbo‘tayeva Marjona Ilhom qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Xolmamatova Durdona Alibek qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda maqollarning ahamiyati haqida fik yuritilgan bo‘lib, darslikdagi maqollar tahlil qilinib, ularning ma’no va mazmuni haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘z: boshlang‘ich sinf, maqol, o‘qish savodxonligi, xalq og‘zaki ijodi, pand-nasihat.

Abstract: This thesis discusses the importance of proverb in the education of elementary school students,andlyzes the proverbs in the textbook and talks aвbout their meaning and content.

Keyword:elementary school,reading literacy,folklore,admonition,proverb.

KIRISH. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, - degan edilar.

“Maqol” - xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda,obrazli va obrazsiz,grammatik va tugallangan ma’noli hikmatli ibora,chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalar, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va soda poetik shaklga kelgan. Xalq og‘zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyodagi hamma olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo‘lgan munosabati aks etganini alohida ta’kidlaydilar.

Bizga ma’lumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o‘rganishda ham bu bosqichlariga e’tibor qaratish darkor. 1-2-sinflar maqollarni

o‘rganishning ilk bosqichi bo‘lsa savod o‘rgatish davri maqollarni o‘qish va o‘rganishning tayyorlov bosqichidir. Savod o‘rgatish davridayoq o‘quvchilar maqollarni o‘qiy boshlaydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog‘liq bo‘lib, ular matn g‘oyasini o‘quvchilarga aniq hamda lo‘nda yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Bu vaqtda o‘quvchilarga maqollar o‘qitiladi, ma’nosini bilganlaricha izohlab berishlari talab qilinadi.

Maqollarni o‘rgatish o‘qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g‘oyaga mos maqol ustida qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish zarur. Boshlang‘ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o‘qish va o‘rganish,tahlil qilish asar o‘qilib,tahlil qilinib bo‘lingach amalga oshirilishi kerak. Boshlang‘ich sinflarning 1-2-sinflarida maqolni ifodali o‘qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-2-sinflarda maqolning mazmunini o‘rganish va yod olishdan tashqari, uning matnida izohli so‘zlar, birikmalar ustida lug‘at ishi o‘tkazish, badiiy til vositalari,ko‘chma ma’noli, qarama-qarshi ma’no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so‘zlar ma’nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. 3-sinf o‘qish savodxonligi darsligida ham maqollar berilgan, ushbu maqollar turli xil metodlar orqali o‘quvchilar saviyasiga mos holda tuzilgan. Masalan,”bulbul bog‘ni bezaydi”,-degan maqolni bulbul va bog‘ni rasmini qo‘yib bezaydi so‘zini qo‘ygan.

Xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish maqol o‘quvchilarni xotirasini charxlaydi, fikrlash doirasini kengaytiradi, mantiqiy tafakkurni boyitadi hamda rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinfning deyarli barcha darsliklarida xalq og‘zaki ijodi namunalari berilgan bo‘ladi. Ona tili darsliklarida ko‘proq xalq maqollarni mashqlar tarkibiga singdirilgan. Kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik va fiziologik xususiyatidan kelib chiqqan holda darsliklarga kiritilgan maqollar tushunilishi oson bo‘lgan maqollardir.

Bilamizki, maqol xalq og‘zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo‘lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari-ohangdosh tovushlilar takrori bo‘ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo‘lgan ajoyib so‘z ustalarining o‘lmas satr va hikmatli so‘zlari ham ko‘pincha xalq maqollariga o‘xshab ketadi. Masalan, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida aytgan bir qancha hikmatli so‘zlari shular jumlasidandir: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”, “Tilga ixtiyorsiz - elga e’tiborsiz” va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbek xalq maqollari.
2. Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi (ma’ruzalar matni) 2-sinf, G‘ulomova X,Yo‘ldosheva Sh , - T.:2002
3. Fuzailov S,Xudoyberganova M,Yo‘ldosheva Sh., Ona tili, 3-sinf.- T.:2019
4. Ikromova R,G‘ulomova X,Yo‘ldosheva Sh,Shodmonqulova D,Ona tili,4-sinf uchun, T .,2020
5. Mirzayeva S., O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T.:O‘qituvchi,1992.
6. https://www.samdu.uz
7. https://uz.wikipedia.org
8. https://arxiv.uz.